



International cooperation in criminal proceedings

Tolibdjon OBIDOV¹

Doctor of Philosophy in Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

international cooperation,
videoconferencing,
the principle of reciprocity.

ABSTRACT

The article contains scientifically based suggestions and recommendations regarding the summoning of a witness, victim, expert, civil plaintiff, civil defendant, and their representatives to perform procedural actions on the territory of the Republic of Uzbekistan or to conduct procedural actions videoconference by a foreign state law enforcement agency at the location or residence of these persons.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp97-100>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jinoyat sud ishlarini yuritishda xalqaro hamkorlik

Kalit so'zlar:

xalqaro hamkorlik,
videokonferensaloqa,
o'zarolik prinsipi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari O'zbekiston Respublikasi hududida protsessual harakatlarni bajarish uchun chaqirilishi yoxud protsessual harakatlar mazkur shaxslar turgan joydagi yoki yashash joyidagi xorijiy davlat huquqni muhofaza qiluvchi organi tomonidan videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishiga doir taklif va tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan.

Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства

Ключевые слова:

международное
сотрудничество,
видеоконференцсвязь,
принцип взаимности.

АННОТАЦИЯ

Статья содержит научно обоснованные предложения и рекомендации по вызову свидетеля, потерпевшего, эксперта, гражданского истца, гражданского ответчика и их представителей для участия в процессуальных действиях на территории Республики Узбекистан либо по проведению таких действий в режиме видеоконференцсвязи иностранным государственным правоохранительным

¹ Doctor of Philosophy in Law.

органом в месте нахождения или проживания указанных лиц.

Jamiyatga tahdid solayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish va jinoiy javobgarlik muqarrarligiga erishish jinoyat sodir etganlarni aniqlash hamda fosh etishda xalqaro hamkorlikni taqozo etadi. Avvalo, bu sohada bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, Ekstraditsiya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1957-yilda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yilda imzolangan) va Fuqaroviy, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi Minsk konvensiyalari (1993-yil 22-yanvarda imzolangan)dir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga 2010-yil 28-sentyabrda kiritilgan o'zgartish va qo'shimchaga muvofiq, JPKning o'n to'rtinchi bo'limi Jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalariga bag'ishlandi. JPKning 601-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Aynan bir shaxsni ushlab berish to'g'risida bir necha davlatning so'rovi mavjud bo'lganda, shaxsni qaysi davlatga ushlab berish kerakligi to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qabul qilingan qaror to'g'risida o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxsni yigirma to'rt soat ichida yozma ravishda xabardor qiladi va mazkur qaror ustidan JPKning 602-moddasiga muvofiq shikoyat qilishni tushuntiradi. O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish haqidagi qaror o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan shaxs yozma ravishda xabardor etilgan paytdan e'tiboran o'n sutka o'tishi bilan kuchga kiradi. Qaror ustidan shikoyat qilingan taqdirda, shaxsni ushlab berish sudning ajrimi qonuniy kuchga kirguniga qadar amalga oshirilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o'rinbosarining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarori ustidan so'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudiga, jinoyat ishlari bo'yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudlariga mazkur shaxs yoxud uning himoyachisi tomonidan xabarnoma olingan paytdan e'tiboran o'n sutka ichida shikoyat qilinishi mumkin.

So'ralayotgan shaxs qamoqda saqlanayotgan joyning ma'muriyati shikoyatni olishi bilan uni darhol sudga yuboradi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xabarnoma olingan kundan e'tiboran uch sutkadan kechiktirmay sudga O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarorning qonuniyligi va asosililigini tasdiqlovchi materiallarni yuboradi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o'rinbosarining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish to'g'risidagi qarori ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish shikoyat sud tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, ochiq sud majlisida prokuror, o'ziga nisbatan ushlab berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan shaxs va agar ishda ishtirok etayotgan bo'lsa, uning himoyachisi ishtirokida amalga oshiriladi.

Sud muhokamasi davomida sud shikoyat bergan shaxsning aybliligi masalasini muhokama qilmay, ustidan shikoyat berilgan qarorning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiqligini tekshirish bilan cheklanadi. Sudning ajrimi ustidan apellyatsiya shikoyati berish yoki protest bildirish muddati tugashi bilan qonuniy kuchga kiradi. Sudning ajrimi ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran o'n sutka ichida apellyatsiya tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga shikoyat berilishi yoki

protest bildirilishi mumkin. Apellyatsiya shikoyati yoki protesti ajrimni chiqargan sud orqali berilib, sud uni materiallar bilan birgalikda uch sutka ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga yuborishi va bu haqda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasini yozma ravishda xabardor qilishi shart. Apellyatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya instansiyasi sudining ajrimi u o'qib eshittirilgan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi va darhol ijro etilishi kerak. JPKning 605-moddasiga asosan, shaxs, agar u boshqa davlat hududida uni ushlab berishga sabab bo'ladigan jinoyat sodir etgan deb gumon qilish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan iltimosnomasiz ham yetmish ikki soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Shu o'rinda protsessualist olim Y. Arxipovaning, agar xalqaro hamkorlikda zamonaviy raqamli texnologiyalardan, ayniqsa videokonferensaloqadan foydalanilsa, huquqiy yordam to'g'risidagi so'rovni bajarish tezkorligiga, uning sifati oshishiga va tashkiliy masalalar bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarning oldi olinishiga xizmat qiladi, degan fikrlari ayni muddao.

Aks holda, A. Batrikin ta'kidlaganidek, xalqaro hamkorlikda an'anaviy usulda huquqiy yordam o'rnatilsa, 6 oydan 2 yilgacha va hatto undan-da ko'p muddatlarni tashkil etishi mumkin.

Jumladan, videokonferensaloqadan foydalanish qoidalari, dastavval Germaniyada, Angliyada 1990-yilda qo'llanib, so'ng barcha MDH davlatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mustahkamlangan. Ularda MDH davlatlaridan farqli o'laroq, xalqaro hamkorlikda, ayniqsa, topshirilishi so'ralayotgan qamoqda saqlanayotgan yoki jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslar bilan bog'liq protsessual harakatlarni amalga oshirishda keng foydalanib kelinmoqda.

Amaldagi JPKning 596-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari O'zbekiston Respublikasi hududida protsessual harakatlarni bajarish uchun jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan chaqirilishi mumkinligi, ushbu shaxslarni chaqirishda protsessual majburlov choralari qo'llash tahdidi bo'lmasligi va chaqiruv bo'yicha kelgan ushbu shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tguniga qadar sodir etilgan qilmishlar uchun yoki chiqarilgan hukmlar asosida O'zbekiston Respublikasi hududida jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi yoxud shaxsiy erkinlikning boshqacha cheklanishlariga duchor etilishi mumkin emasligi hamda o'n besh sutkalik uzluksiz muddat o'tguniga qadar O'zbekiston Respublikasi hududini tark etishi belgilangan. Xuddi shuningdek, xorijiy davlat hududida qamoqda saqlanayotgan shaxs, basharti bu shaxslarni chaqirish to'g'risidagi so'rovda nazarda tutilgan protsessual harakatlar bajarilishi uchun xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha o'tkazilgan bo'lsa, ushbu moddada belgilangan tartibda chaqirilishi mustahkamlangan. Bunday shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida bo'ladigan butun davrida qamoqda saqlanadi, uni qamoqda saqlashga xorijiy davlat vakolatli organining tegishli qarori asos bo'ladi. Mazkur shaxs so'rovga berilgan javobda ko'rsatilgan muddatlarda tegishli xorijiy davlat hududiga qaytarilishi kerak.

Shu kabi yuqoridagi qiyosiy-huquqiy tahlillar asosida muxtasar aytganda, shaxsning erkinlikka bo'lgan xalqaro umum e'tirof etilgan huquqini o'z vaqtida va to'la

ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni ushlab berish bo'yicha tezkor yakuniy to'xtamga kelish hamda o'zarolik prinsipiga binoan videokonferensaloqa rejimida huquqiy yordam berishni amaldagi JPKda mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bunday o'zgartishlar xalqaro hujjatlar va ikki tomonlama shartnomalar talablariga rioya etish, xalqaro hamkorlikda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, huquqiy yordam to'g'risidagi so'rovni bajarish muddatlarini qisqartirish, uning sifati oshishiga va tashkiliy masalalar bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarning oldi olinishiga va asosiysi shaxsning erkinlikka bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini yanada teranroq muhofaza qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, JPKning 596-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda o'zgartish maqsadga muvofiq:

“O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari O'zbekiston Respublikasi hududida protsessual harakatlarni bajarish uchun jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs tomonidan chaqirilishi yoxud mazkur shaxslarni ular turgan joydagi yoki yashash joyidagi xorijiy davlat huquqni muhofaza qiluvchi organiga yoki sudiga chaqirgan, texnik vositalardan foydalangan holda videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Архипова Е.А. Применение видеоконференцсвязи в уголовном судопроизводстве России и зарубежных стран. Автореф...канд. юрид. наук. – М. 2013. – С. 31.
2. Бастрикин А. У нас много общих дел. Европейский союз. 09.06.2011. №5499.
3. Головкин Л.В. Курс уголовного процесса. – Москва, 2017. – С. 1280.
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1966-yil 16-dekabrdagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti. <https://lex.uz/docs/264047>
5. Соглашение о сотрудничестве государств – участников Содружества Независимых Государств в борьбе с преступлениями в сфере компьютерной информации от 28 сентября 2018 года (г. Душанбе) // <https://lex.uz/docs/4748982>
6. Решение Совета глав правительств СНГ о Стратегии сотрудничества государств – участников СНГ в построении и развитии информационного общества на период до 2025 года и Плана действий по ее реализации от 28 октября 2016 года // <https://cis.minsk.by/reestr/ru/index.html.reestr/view/5490>
7. Модельный Уголовно-процессуальный кодекс для государств-участников СНГ. Рекомендательный акт и Приложение к «Информационному бюллетеню». 17.02.1996. №10.